

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

YAHM hajmi,
mlrd. so'm

57 274,8

YAHM o'sish
sur'ati

105,2 %

YAHM deflyator
indeksi

110,8 %

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-sentabrda Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 57 274,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 5,2 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-sentabridagi narxlariga nisbatan 110,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo'shgan hissasi 7,6 % ga yetdi.



**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	
I. YAHM, jami	49 148,5	57 274,8	105,2
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	48 139,1	56 415,8	105,2
mahsulotlarga sof soliqlar	1 009,4	859,0	105,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	48 139,1	56 415,8	105,2
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6 447,5	7 754,4	103,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	35 552,6	41 460,0	105,8
sanoat	33 735,6	39 397,6	105,8
qurilish	1 817,0	2 062,4	106,2
xizmatlar	6 139,0	7 201,4	103,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 430,2	1 688,8	105,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	830,7	940,5	101,9
boshqa xizmat tarmoqlari	3 878,1	4 572,1	102,9



YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 53 880,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,1 % ga yuqoridir.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming so'mda)



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2022- yil	2023- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,9	98,5
mahsulotlarga sof soliqlar	2,1	1,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	13,4	13,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	73,9	73,5
sanoat	70,1	69,8
qurilish	3,8	3,7
xizmatlar	12,7	12,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3,0	3,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1,7	1,7
boshqa xizmat tarmoqlari	8,0	8,1

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha

YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 13,4%

Sanoat

70,1%

Qurilish

3,8%

Xizmatlar

12,7%

2023- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 13,7%

Sanoat

69,8%

Qurilish

3,7%

Xizmatlar

12,8%

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,5 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 13,7 % ni, sanoat tarmog'i 69,8 % ni, qurilish 3,7 % ni va xizmatlar sohasi 12,8 % ni tashkil qildi.



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM
o'lishida tarmoqlarning hissasi (jamiga
nisbatan % da)

YAHM



5,2

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik
xo'jaligi




0,5

Sanoat



4,0

Qurilish



0,2

Xizmatlar



0,4

Mahsulotlarga
sof soliqlar



0,1





YAHM o'lishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,5 f.p. (2022- yilning yanvar-sentabrda – 0,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 4,0 f.p. (2022- yilning yanvar-sentabrda – 4,0 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,2 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrda – 0,2 f.p.) va xizmatlar sohasi – 0,4 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrda – 0,9 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'lishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2022- yilning yanvar-sentabrda – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.



Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



■ 2022- yil
■ 2023- yil

2023- yilning yanvar-sentabrida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir.

O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,6% (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 13,7 %), sanoatda – 105,8 % (69,8 %), qurilishda 106,2 % (3,7 %), xizmatlar sohasida – 103,4 % (12,8 %) ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 105,4 % (3,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 101,9 % (1,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,9 % (8,1 %) dan iborat bo'ldi.




Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi


(o'tgan yilgning mos davriga nisbatan % da)




YAHM



Qishloq, o'rmon
va baliqchilik
xo'jaligi




Sanoat




2023- yilning yanvar-sentabrida YAHM deflyatori indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 110,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 116,1 % va xizmatlar sohasida – 113,5 % qayd etildi.




Qurilish



Xizmatlar



Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 15 046,3 mlrd. so‘m (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 12 465,5 mlrd. so‘m)ni tashkil qildi. YAHMdagi ulushi 26,7 % (2022-yilning yanvar-sentabr oylarida – 25,9 %)ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.

